



Constitutional reforms: The legal foundation of state youth policy

Eshmukhammad KODIROV¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 15 October 2025

Available online

25 November 2025

Keywords:

youth,
youth state policy,
Constitution,
constitutional reform,
constitutional and legal
mechanism,
legal consciousness and
legal culture,
legal education.

ABSTRACT

This article, from the point of view of constitutional doctrine, provides an analysis of constitutional reforms in New Uzbekistan as an important legal basis for state policy towards youth. Existing scientific and practical problems are also analyzed, and constitutional and legal mechanisms for their elimination are explored.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss5-pp128-135>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Konstitutsiyaviy islohotlar – yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asosi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

yoshlar,
yoshlarga oid davlat siyosati,
Konstitutsiya,
konstitutsiyaviy islohot,
konstitutsiyaviy huquqiy
mexanizm,
huquqiy ong va huquqiy
madaniyat,
huquqiy ta'lim.

Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda Konstitutsiyaviy islohotlar yoshlarga oid davlat siyosatining muhim huquqiy asosi ekanligi konstitutsiyaviy ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, mavjud ilmiy-amaliy muammolar tahlil etilib, ularni bartaraf etishning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlari tadqiq etilgan.

¹ Doctor of Legal Sciences, Professor, Tashkent State University of Law. E-mail: e.kadirov@tsul.uz

Конституционные реформы – правовая основа государственной молодежной политики

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

молодежь,
молодежная
государственная
политика,
Конституция,
конституционная
реформа,
конституционно-правовой
механизм,
правосознание и правовая
культура,
юридическое образование.

В данной статье с точки зрения конституционной доктрины дается анализ конституционных реформ в Новом Узбекистане в качестве важной правовой основы государственной политики в отношении молодежи. Также анализируются существующие научно-практические проблемы, исследуются конституционно-правовые механизмы их устранения.

KIRISH

Yangi O'zbekiston o'z oldiga hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglab, inson qadri yuksalgan – suveren – demokratik – huquqiy – ijtimoiy – dunyoviy davlat qurishni maqsad qilib qo'ydi. Bunda tabiiyki yoshlarga oid davlat siyosatining tashkiliy-huquqiy asoslariga e'tibor qaratishi shubhasiz. Zero, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sanalmish yoshlar siyosati konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandimi, demak u istiqbolli sanaladi. Agar masalaning mantig'iga biz o'zbek xalqining mentaliteti hamda Konstitutsiya davlatning oliy yuridik kuchga ega qonuni ekanligi prinsipidan kelib chiqsak, uning mohiyati yanada oydinlashadi.

Mamlakatimizda 2023-yilning 30-aprelida referendum yo'li bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilingani muhim tarixiy voqea bo'ldi. Respublikamizda Konstitutsiyaviy islohotning amalga oshirilgani birinchidan, inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi va uning kafolatlanishi, ikkinchidan, davlat organlari va mansabdor shaxslarning mas'uliyati oshirilishi, uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlariga imkoniyatning kengaytirilishi bilan bog'liqligida ko'rinadi. Asosiy qonunimizning isloh etilishi shu o'rinda, mamlakatimiz siyosiy va huquqiy tizimi hamda iqtisodiyot, ijtimoiy yoxud madaniy sohaning rivojlanishi bilan ham bog'liqligini nazardan qochirmaslik lozim.

Binobarin, O'zbekiston aholisining yarmini aynan yoshlar tashkil etgani yoxud Yangi O'zbekistonni qurishda yoshlar yangi kuch, yangi g'oya, zamonaviy ilm va innovatsion texnologiya sohiblari sifatida namoyon bo'lishi amalga oshirilayotgan Konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy yadrosini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi [1]. Davlat o'z oldiga xalqni rozi qilishdek konseptual masalani qo'yayotgani ham bevosita muhim ijtimoiy qatlam sanalmish yoshlar bilan o'zaro bog'liq, hisoblanadi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-67-son farmonining [2] ahamiyati ham yuqori ekanligini ta'kidlash joiz, deb hisoblaymiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 32 yilligi munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida ta'kidlaganidek: "Islohotlarni jadal davom ettirib, yangilangan Konstitutsiyamiz normalarini hayotga tatbiq etish maqsadida

tadbirkorlikni rivojlantirish, shu asosda aholi daromadlarini oshirish, oila va mahallalarda o'zaro hurmat va ahillik muhitini mustahkamlash, keksa avlod vakillari, xotin-qizlar va yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash vazifasi bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi" [3].

MATERIAL VA METODLAR

Mazkur maqolada ilmiy tadqiqotlarni olib borishda turli umumilmiy metodlar qo'llanilgan bo'lib, eng muhimlari analiz va sintezdir. Analiz jarayonida tadqiqot mavzusi alohida qismlarga bo'linib o'rganilib, muammoning tub mohiyatiga chuqur kirib boriladi. Sintez esa turli qismlarni o'zaro bog'lash orqali yaxlit tizim shakllanish jarayonini qamrab oladi. Bu metodlar ilmiy tadqiqotga mantiqiy va tizimli yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

Maqolada, shuningdek, mantiqiylik va tizimlilik tamoyillariga alohida e'tibor qaratilgan. Mantiqiy yondashuv mavjud ma'lumotlarning izchil va tartibli tarzda tahlil qilinishiga yordam beradi, tizimlilik esa tadqiqotni murakkab tizim sifatida qarab, undagi turli elementlarning o'zaro bog'liqliklarini aniqlash imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, tarixiylik metodi ham qo'llanilgan. Ushbu metod vositasida tadqiqot mavzusining rivojlanish dinamikasi, o'tmishdan hozirgacha bo'lgan holati o'rganiladi va kelgusi o'zgarishlar taxmin qilinadi.

Maqolada huquqiy metodlar ham alohida o'rin tutadi. Masalan, xususiy-huquqiy metod muayyan huquqiy institutlarni alohida o'rganishga va ularning qonunchilikdagi o'rnini tahlil qilishga yordam beradi. Qiyosiy-huquqiy metod esa turli davlatlardagi huquqiy tizimlarni solishtirib, aniq xulosalar chiqarish imkonini beradi. Formal-yuridik metod esa huquqiy normalarning tuzilishi va ularning huquqiy jarayonlardagi o'rnini tahlil qiladi.

Ushbu metodlar maqoladagi xulosalarning ilmiy asoslilik va ishonchliligini ta'minlashga muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Fan va ilmiy nazariy jihatdan davlatning yoshlarga oid siyosati bilan bog'liq amalda qanday muammolar borligiga e'tibor qaratilsa, bu borada jamiyat va davlat oldida qator muammolar borligi aniq bo'ladi. Bu esa davlatning "faol fuqaroni tarbiyalash" konsepsiyasiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Birinchidan, Konstitutsiyamizning mazmun mohiyatini va ahamiyatini to'g'ri tushunishda real, amaliy muammolar mavjud. Ya'ni mazkur holat uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim muassalari, umumta'lim maktablari, akademik litsey, kollej va texnikumlarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fan sifatida o'qitilishida namoyon bo'ladi. Zotan, Konstitutsiyaviy huquq fani afsuski, barcha ta'lim muassasalarida ham mutaxassislar tomonidan belgilangan talab va yetarli darajada o'qitilmaydi. Aksariyat hollarda masalaga yuzaki yondashilib, vaziyatdan chiqish asosiy vazifa sifatida ko'riladi. Mazkur fan ta'lim muassasalarida boshqa soha vakillari tomonidan o'qitiladi. Ma'lum bo'ladiki, o'quvchilar Konstitutsiya to'g'risida dastlabki yetarli, to'g'ri tasavvurga ega bo'lmaydi. Yoshlar inson huquqlari, burchlari, davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi va ularning vakolatlari, fuqarolik jamiyati institutlari, shaxs – jamiyat – davlatning manfaatlari ufg'unligi kabi huquqiy va siyosiy bilimlarni talab darajasida o'zlashtirmaydi. Taassufki, natija o'zining salbiy ta'sirini yoshlarning hayotida keng ko'lamda uzoq muddatlarga ko'rsatadi. Mazkur holatda davlatning huquqiy ma'rifatli, huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak shaxsni tarbiyalashdek ustuvor vazifasi amalga oshmay qoladi. Yoshlarga oid davlat siyosati ham kutilgan samarani bermaydi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda yoshlar, ayniqsa o'spirinlarning amaliy huquqiy bilimlarini o'zlashtirish kabi samarali xorijiy tajribadan unumli foydalanilmaydi. Borlari ham juda kam va to'liq mamlakat yoshlari doirasini qamrab ololmaydi. Shu o'rinda "o'spirin" tushunchasiga izoh berib o'tishga ehtiyoj seziladi. Tarbiya ensiklopediyasida: "O'spirin – inson taraqqiyotining taxminan 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davri; pedagogikada "katta maktab yoshi" ham deyiladi. O'spirinlik so'nggida, odatda, yigit-qizlar jismoniy va ruhiy jihatdan balog'atga yetadilar [2]. O'spirinlik – odamning bolalik bilan yoshlik o'rtasida kuch-quvvatga to'lib toshgan, intilishlar chegara bilmaydigan, romantik xayollar og'ushida, qahramonliklar ko'rsatishga, ko'pchilikning e'tirofi va e'tiborini qozonishga, o'z tushunchasi darajasida adolatga bor kuchi bilan intilib yashaydigan, taxminan 15–18 yoshli e'tibortalab davri bo'lib, u inson hayotida muhim yosh bosqichidir.

Taraqqiy etgan davlatlarda yoshlarning mazkur toifasi uchun yoshlarga huquqni amaliy o'rgatish bo'yicha "Yuridik klinika" "Street law" (Ko'cha huquqi – amaliy huquq) loyihasidan foydalanishadi va u o'z samarasini berishi real hayotdan ma'lum. Natijada xorij yoshlarining ko'pchiligi o'z huquqlari bilan birga burchlarini ham teng anglaydigan bo'lib yetishishadi. Siyosiy va huquqiy jihatdan faol fuqaro sifatida shakllanishadi. Masalan, amaliy huquq bizda "fuqarolik pasportini olish", "o'qigan ma'lumoti haqida diplom olish", "dastlabki mehnat munosabatlariga kirishish", o'spirinlar o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda olgan nazariy bilimlaridan amaliy foydalanishi kabilar tushuniladi. Afsuski, bizning yoshlarimiz bunday amaliy jarayonlarga qachonki o'zlari shaxsan muammoga duch kelgandagina zarurat sezishadi.

Uchinchidan, yurtimiz yoshlari orasida uchraydigan yana bir salbiy holat, bu ularning aksariyati o'z huquqlarini anglashi biroq konstitutsiyaviy burchlaridan xabardor emasligidir. Inson huquqlari faqat shaxsga huquqni belgilamaydi, o'z o'rnida unga muayyan burchlarga rioya qilishini ham yuklaydi. Ana shundagina yuridik jihatdan huquq to'liq bo'ladi. Demak yoshlarning o'z huquq va burchlarini teng anglashi nafaqat huquqiy faol bo'lishiga balki yurisprudensiyaning mohiyatini to'g'ri tushunishiga ham xizmat qiladi. Yoshlarda burchdorlik hissining shakllanishi ularning oilasiga, mahallasiga, qishloq yoki shahriga, viloyatiga hamda vatani oldidagi mas'uliyatining oshishiga zamin yaratadi.

Farzandlarimizda murakkab vaziyatlarda to'g'ri yechim, qarorlar qabul qila olish ko'nikmalarini shakllantirishimiz kerak. "Biz yoshlarimizga "Sen konstitutsiyamizdagi normalarni ko'paytirish jadvalidek bilishing kerak, deya olishimiz kerak ...". Bu fikr har bir o'qituvchi, murabbiydan o'z ishini tanqidiy ko'rib chiqishni talab qiladi. Nima uchun? Bu fikrning ahamiyatini anglash uchun bir huquqiy vaziyatni ko'z oldimizga keltiramiz: Siz 7-sinfga kirib, "Siz Vatan oldida qanday burchlarim bor, deb hisoblaysiz?", "Ota-onangiz oldidagi qaysi burchlaringizni bilasiz?", deb so'rasangiz, turli javoblarni olasiz. Lekin 7 ga 7 ni qo'shsak, necha bo'ladi, desangiz, o'quvchilar jo'r bo'lib, yakdillik bilan "O'n to'rt!", deb mag'rur javob berishadi. Nega shunday? Chunki $7+7=14$ da, aniqlik ta'minlangan. "O'zbekiston yoshlarining Vatan oldida qanday burchlari bor?" degan savolga javobda esa shu aniqlik yo'q. Nega? Chunki shu paytgacha huquqiy tarbiyaviy ishlar tizimi oldiga aniqlik, kafolatni ta'minlash talabi qo'yilmagan. Demak, biz zudlik bilan ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyaviy ishlarimizni mavhumlikdan tozalab, aniqlik sari intilishimiz kerak. Toki farzandlarimiz o'zlarining Vatan oldidagi burchlarining dastlab loaqal 3 tasini, keyingi yil 5 tasini aniq, yakdillik bilan mag'rur "ko'paytirish jadvalidek" bilsin, amalda qo'llashga tayyor bo'lsin. Ana shunda bu aniq

bilimlar ertaga ularning hayotda turli vaziyatlarda ikkilanmasdan, to'g'ri qaror qabul qilishlarida madad bo'ladi. Shu o'rinda qayd etish joizki, konstitutsiyaviy huquq va burchlarini teng anglaydigan yoshlarning ko'payishi, boqi beg'am, loqayd va xudbin shaxslarning shakllanishining oldini oladi.

To'rtinchidan, huquqiy tarbiya yoki huquqiy ma'rifatga ijtimoiy tarbiyaning ajralmas, muhim tarkibiy qismi sifatida e'tibor qaratilmasligidadir. To'g'ri. Huquqiy tarbiya masalasida jamiyat va davlat miqyosida rasmiy tarzda bo'lsa-da, muayyan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib qator ishlar amalga oshiriladi. Buni inkor etib bo'lmaydi. Lekin masalaning individual va oilaviy jihatlar qoniqarsiz holatda qolayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Mazkur holat jamiyat va davlat miqyosida huquqiy tarbiya bilan bog'liq ishlarning manzilli ravishda aniq subyektlarga yetib bormasligida yoki ular tomonidan o'zlashmasligida ham ko'rinadi. Har bir yosh avlod vakili huquqiy tarbiya uning shaxsiy manfaati, jamiyat va davlat manfaati bilan uyg'un bo'lganda natija berishini bilishi kerak. Shuningdek, huquqiy tarbiya faqat huquqni qo'llovchi davlat organlari va mansabdor shaxslarning ishi degan jamiyatdagi noto'g'ri va tor tushunchadan voz kechish vaqti allaqachon kelganini tushunish lozim. Zero, bugungi yoshlar davlat va jamiyat boshqaruvi uchun faol vorislar ekani yoxud ular doimiy ravishda ushbu ijtimoiy qatlam vakili sifatida qolmasligini nazardan qochirmaslik lozim. Vaqti kelib, ular mazkur kategoriyadan chiqib, faol fuqaroga aylanishini, davlat va jamiyat boshqaruvining qonuniyligi yoki adolatligi aynan yoshlarga bog'liqligini tushunushimiz va tushuntirishimiz zarur. Yana bir muhim jihat bugungi davrda huquqiy tarbiyani amalga oshirishda shaxsiy ibrat masalasi naqadar dolzarbligini ham unutishga haqqimiz yo'q. Chunki bugungi yoshlar intellektual asr yoshlari ekanini, ular faqat aytilganni qiladigan emas, aksariyat holatda o'z ko'zi bilan ko'rganini hamda o'zi guvoh bo'lgan real harakatni amalga oshirishini nazardan qochirmaslik kerak.

Beshinchidan, yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksaltirilishida tizimlilikka amal qilinmayotganligi ham muhim sabab sifatida namoyon bo'lmoqda. Yoshlar huquqiy madaniyati – bu adolat, mas'uliyat, faollik, sha'n, g'urur va qadriyat kabi umumiy madaniyatning elementlari asosida shakllanadigan hamda yoshlarning huquqiy-siyosiy ijtimoiylashuvi natijasi yoxud qonunlarga munosabati, huquqiy savodxonlik darajasi, huquq buzilishlariga murosasizligini anglatadigan, huquqiy ong, huquqiy bilim va huquqiy xulq-atvorni mujassam etadigan voqelikdir.

Darhaqiqat, mazkur yo'nalishda alohida normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, unda "Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan konseptual g'oya asosida huquqiy bilimlarni kundalik hayotda tizimli qo'llay olish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [3] bo'lsa-da, uni real hayotda to'liq amalga oshirilayapdi, deb bo'lmaydi. Umumiy aholimizning yarmini tashkil etuvchi yoshlar uchun huquqiy ma'rifat bugungi kunda zarurat sanalsa-da, u hali real voqelikka aylanib ulgurgani yo'q. Vaholanki, ushbu farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish "shaxs – oila – mahalla – ta'lim muassasi – tashkilot – jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy ravishda amalga oshirilishi mustahkamlangan. Natijada, ayrim yoshlarimiz respublikamiz ichkarisi yoxud uning tashqarisida ham muayyan huquqiy muammolarga duch kelib sarson bo'lishmoqda. Bu esa tabiiyki ma'lum ma'noda mamlakatning nufuziga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Fikrimizcha, bunda asosiy sabab yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning huquqiy bazasi sanalmish mazkur normativ huquqiy hujjat talablarini ba'zi davlat organlari va mansabdor shaxslar yoki ta'lim muassasasi, tashkilot va ayrim shaxslarning talab darajasida bilmasliklari bilan ham izohlash mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI

Yangi O'zbekistonning huquqiy ma'rifatli shaxsni tarbiyalash bilan bog'liq yoshlarga oid davlat siyosatining konstitutsiyaviy asoslarining yechimi nimalarda ko'rinadi? degan Konstitutsiyaviy ilmiy nazariy savolga quyidagi javoblarni berish mumkin.

Birinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda yoshlarga oid davlat siyosatiga bevosita tegishli normalarning mustahkamlanganida ko'rinadi. Unga ko'ra, asosiy qonunimizda oila, bolalar va yoshlarga daxldor alohida yangi bob kiritildi. Shu paytgacha amalda bo'lgan Konstitutsiyamizda esa mazkur normalar faqat uning muqaddimasi, 41 va 45-moddalarida [4] mavjud edi xolos. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 78-moddasida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati [5] sifatida mustahkamlangan. Bizningcha, mazkur normaning Konstitutsiya darajasida belgilanishi davlatning ma'rifatli shaxslarni aynan huquq asosida, dastlab davlat institutlarining, fuqarolik jamiyati va ijtimoiy institutlar bilan mustahkam hamkorlikda mas'uliyatni zimmasiga olib asosiy qonunimizning mazmun mohiyati va ahamiyatini jamiyat a'zolari, ayniqsa, yoshlar ongiga muhim qadriyat sifatida singdirishni amalga oshirish majburiyatiga keng imkoniyat yaratadi. Va ushbu huquqiy mexanizm yoshlarga oid davlat siyosatining Konstitutsiyaviy asosini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, aynan shu konstitutsiyaviy moddaning ikkinchi qismida davlat va jamiyat bolalarda yoxud yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatdan yoki xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish haqida g'amxo'rlik qilishi ham mustahkamlangan. Fikrimizcha, ma'rifatli shaxsga xos bo'lgan mazkur ijobiy sifatlar davlat va jamiyat boshqaruvida olgan nazariy huquqiy-siyosiy bilimlarini amalda qo'llay oladigan, o'z erkin shaxsiy pozitsiyasiga ega, erkin tafakkurli va mustaqil hamda daxldorlik hissini tuyuvchi ijtimoiy, siyosiy va huquqiy faol fuqarolarning hamda munosib vorislarning tarbiyalanishiga zamin yaratadi.

Uchinchidan, asosiy qonunimizning 79-moddasining birinchi qismida davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hamda madaniy yoxud ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlashi yoki ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirokini rag'batlantirishi ham o'z ifodasini topgan. Mazkur yangi konstitutsiyaviy normaning belgilanishi ham o'z navbatida yosh avlod vakillarining nafaqat o'z huquqlarini balki konstitutsiyaviy burchlarini ham teng o'zlashtirishiga xizmat qilishi shubhasiz. Sababi davlat faqat shaxsning huquq va erkinliklari himoya qilinishini emas balki uning jamiyat va davlat oldidagi burchlarga amal qilinishini ham rag'batlantiradi. Natijada mamlakatimizda bu borada mavjud muammolar ushbu konstitutsiyaviy huquqiy mexanizmlar asosida barham topadi.

To'rtinchidan, Konstitutsiyaning 50-moddasida davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari hamda shakllari yoki davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi, maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratida ekanligi yoxud ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiyani ta'minlashi mustahkamlangan. Mazkur konstitutsiyaviy mexanizm orqali davlat huquqiy ta'limning amalda umumiy ta'limning ajralmas tarkibiy qismiga aylanishi shuningdek, huquqiy tarbiya va huquqiy ma'rifatning yoshlar uchun asosiy qadriyatga aylanishiga erishadi. Va bu o'z o'rnida huquqiy ma'rifat jarayonida

“shaxsiy namuna” usulining ommalashishiga, yoshlarning aynan erta bolalikdan huquq asosida tarbiyalanishining samarali bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatli sanaladi.

Beshinchidan, Konstitutsiyaning 79-moddasining ikkinchi qismida davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy tomondan shakllanishi hamda rivojlanishi, ta'lim olishiga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishiga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishga sharoit yaratishi belgilangan. Demak, huquqiy madaniyati yuksak yoshlarning ko'pligi davlatning har tomonlama taraqqiyotini belgilar ekan. Ya'ni qayd etilgan davlat va yoshlar o'rtasidagi o'zaro munosabat bevosita huquqqa asoslanadi. Inchunun, mazkur huquqiy mexanizm yoshlarning huquqiy va siyosiy jihatdan faollashib ularning davlat bilan o'zaro munosabati samarali bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Shu nuqtayi nazardan yoshlarning hayoti davomida huquqiy madaniyatining bosqichma-bosqichlik asosida yuksalib borishi dastlab faol fuqaro sifatida o'zi uchun hamda ma'rifatli shaxsni tarbiyalashda davlat uchun ham birdek manfaatli hisoblanadi. Va ushbu huquqiy norma davlatning bosh yo'naltiruvchi subyekt sifatida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalishida samaradorligini ta'minlashga hamda mazkur yo'nalishda mavjud muammolarni hal etishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli sanaladi. Bizningcha, yoshlarning deyarli barchasi ushbu munosabatlarning mantig'iga ko'ra ham huquqiy madaniyati yuksak bo'lishdan manfaatdor hisoblanadi.

XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda huquqiy ma'rifatli shaxsni tarbiyalashda huquq benazir qadriyat sanaladi. Konstitutsiya esa milliy huquqiy tizimning asosiy manbaidir. Shu nuqtayi nazardan xalqimizning xohish irodasi asosida referendum yo'li bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiyamiz va uning asosidagi konstitutsiyaviy islohotlar ushbu maqsadga erishishda hamda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda muhim huquqiy asos hisoblanadi. Voqean, mamlakatimizda boshqaruvning respublika shakliga asoslangan inson qadri yuksalgan – suveren – demokratik – huquqiy – ijtimoiy – dunyoviy davlat qurish maqsadini amalga oshirishda o'zining huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlari bilan birga konstitutsiyaviy burchlarini ham uyg'un ravishda anglash yoxud mas'uliyat bilan amal qilish hammamiz uchun zarur, hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасини Конституцияси. Расмий нашр. – Тошкент: “O'zbekiston” нашриёти, 2023. – 80 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 8 майдаги “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-67-сон фармони. Миллий қонунчилик базаси маълумотлари, 10.05.2023 й., №0/623/67/0269.
3. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 32 йиллигига бағишланган халқимизга йўллаган байрам табриги. <https://daryo.uz> 06.12.2024.
4. Тарбия (ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия). – Т.: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2010. – 504–506-б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 9 январдаги «Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида»ги ПФ-5618-сон Фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.01.2019 й., 06/19/5618/2452-сон).

6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 16-17-бетлар.

7. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Расмий нашр. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2023. 29-31-бетлар.